Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 94
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

SADRIDDIN AYNIYNING DASTLABKI JADIDCHILIK FAOLIYATI HAQIDAGI TARIXIY-FALSAFIY MULOHAZALAR

Komila Payzullayevna Islamova*
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi
✉ islamovakomila640@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Sadriddin Ayniyning dastlabki jadidchilik faoliyati haqidagi tarixiy-falsafiy mulohazalar yoritib berilgan bo'lib, bunda adibning dastlabki ta'lim olish yillaridan boshlab faoliyatining boshlanish davrlaridagi jadidchilik yo'nalishidagi sermahsul mehnati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar

Ma'rifatparvar, "Sifliy", "Muhtojiy", "Jununiy", "Ayniy", "Guli surx" ("Qizil gul"), "Navodir ul-vaqoye'", "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar".

DOI: 10.5281/zenodo.22053894

KIRISH

Sadriddin Ayniy dastlabki ta'lim olish yillaridayoq eski maktabda quruq yodlatish sabog'idan, konservativ ta'lim usullaridan qoniqmaganligi uning yangi ta'lim usullaridan foydalanishga bo'lgan intilishlarini oshirdi. shunga qaramay Buxoro madrasalarida u o'qishini davom ettiradi. Ayniy o'ttiz yilga yaqin umrini Buxoro shahrida o'tkazdi. U bu yerda ko'plab tarixiy voqealarning jonli guvohi bo'ldi. Ma'rifatparvar olim o'sha davrdagi Buxoroning mashhur va ma'lum bo'lgan Mir Arab (1890-1891 y), Olimjon (1892-1893 y), Badalbek (1894-1896 y), Hoji Zohid (1896-1899 y.y.) va Ko'kaldosh (18991900 y) kabi bir qator madrasalarida turli mudarrislardan saboq oldi. Ammo, madrasalardagi o'quv dasturi va o'qitish uslublari eskirgani tufayli mustaqil ravishda adabiyot, tarix kabi fanlarni o'rganish yo'lini tanladi. "Buxoro madrasalarida, - deb yozadi Ayniy, - haftada to'rt kun - shanba, yakshanba, dushanba va seshanba kunlari dars bo'lib, qolgan uch kuni dam olish bo'lardi" [1].

S.Ayniy Buxoroga ko'chib o'tgan dastlabki bosqichda "Sifliy", "Muhtojiy" va "Jununiy" kabi turli taxalluslar bilan ilk she'rlari bilan badiiy ijodini boshlaydi. 1895-1896 Madrasa o'quv yilida esa S.Ayniyning dars mashg'ulotlari va adabiy-ijodiy ishlarida o'zgarishlar yuz beradi. Chunki u 1896 yilda "Ayniy" taxallusi bilan ilk she'rini yozadi. Uning e'tiroficha, "Ayniy" so'zining kitoblarda 48 xil ma'nosi ko'rsatilgan. "Eng muhimlari, chunonchi shular: ko'z, buloq, oftob va yana boshqalar, men bu so'zning ko'z va buloq ma'nolariga nisbat berib, o'zimga "Ayniy" taxallusini qabul etishga qaror qildim" [1:55] - deb yozadi olim. 1895 yilda yozilgan "Guli surx" ("Qizil gul") she'ri uning to'la saqlanib qolgan birinchi asaridir. "Ayniy" taxallusi bilan yozilgan bu she'r har yili aprel, may oylarida Buxoroda bo'ladigan gul sayliga bag'ishlab bitilgan.

1900 yilda Buxoroda Sharifjon Maxdum (Sadr Ziyo) qozilik vazifasidan bo'shatiladi. U Ahmad Donishning "Navodir ul-vaqoye' " ("Nodir voqealar") asarini qo'lga kiritib, uni ko'chirib berish uchun Mirza Abdulvohidga topshiradi. O'sha kezlarda Mirzo Abdulvohid G'oziyon guzaridagi Mulla Muhammadsharif madrasasida yashar edi. Men Hayrat bilan birga ba'zan uning oldiga borib, "Navodir ul-vaqoye' "ning har qayeridan parchalar o'qir edik. Hikoya va suhbat tariqasida u kitobda ba'zi bir narsalar tasvirlangan ediki, biz ularni kundalik

hayotda uchratib tursak ham, e'tibor bermas edik. Avtor ana shunday narsalarni tasvirlab, ularni tanqid qilar edi .

1904 yilda Abduxalil maxdum pulga muhtoj bo'lgandan keyin S.Ayniy turgan hujrani sotadi. S.Ayniy shu vaqtdan boshlab bir yil davomida hujrasiz, do'stlari va yaqin birodarlari hujralarida sarson- sargardonlikda yashay boshlaydi. S.Ayniy qiyinchiliklardan keyin Ko'kaldosh madrasasining orqasida joylashgan Domlasher nomli madrasadan bir hujra topadi. Bu hujraning boshqa madrasalardan farq qilar edi. Ya'ni hujraning sharoiti yomon toza emas edi. Shunga qaramay, S.Ayniy u yerda ikki yil yashaydi. "Uch yuzdan ortiq madrasalarida uch-to'rt ming hujrasi bo'lgan Buxoroda menday tanish-bilish ko'p bo'lgan va shoirlikda ham nom chiqargan kishi biron turar joy topa olmay sarson edi" [1:64] deb yozadi S.Ayniy.

1904 yilda Qarshi shahriga qozi etib tayinlangan Sharifjon Maxdum Sadr Ziyo S.Ayniyning boshpanasiz, hujrasiz qolib qiynalganligini eshitib, Ko'kaldosh madrasasidagi o'z hujrasini unga beradi. "Men u hujrada 1907 yildan tortib amirning odamlari qo'liga tushganimga qadar yashadim" [1:65] - deb ta'kidlab o'tadi, S.Ayniy.

1907 yilga qadar Turkistonning ko'pgina viloyatlarida, Samarqand, Toshkent va boshqa shaharlarda yangi usuli jadid maktablari ochilgan edi. Bu vaqtlarda Buxoroda faoliyat yuritayotgan tatarlar o'z bolalari uchun yangi usul maktablarini ochdi. Eski maktabning darslaridan qoniqmagan, o'qitish usuli buzilgan, dars mashg'ulotlari eskirgandan ayrim buxoroliklar o'z bolalarini tatar maktabiga o'qishga bera boshladilar. S.Ayniy 1907 yilda Buxorodagi Nizom Sobitovning tatar maktabini borib ko'radi. U tatar maktabida mahalliy xalq farzandlariga darslarni tatar tilidan tarjima qilib berish ishi bilan qariyb olti oy shug'ullanadi.

S.Ayniy ishlagan Nizom Sobitovning tatar maktabida bolalar yosh xususiyatlariga qarab sinflarga bo'lingan. O'rtacha bir kunda 5 soat dars, har bir darsdan so'ng 10 daqiqa tanaffus joriy qilingan. Birinchi bosqichda o'quvchilarga harflar o'rgatilgan. O'quvchi bir darsni o'zlashtirmasa, ikkinchisiga o'tolmagan. Bolalarni yorug' xonalarda, ko'rgazmali qurollar, globus va xaritalar orqali o'qitish yo'lga qo'yilgan. Bu maktab an'anaviy usuldagi maktablardan nafaqat shart-sharoitlari, balki o'quvchilar tezda savodini chiqarishi bilan ham afzal bo'lgan. Ularga 10 oylik tahsildan so'ng ta'til berilgan, hafta mobaynida juma kuni va bayram kunlari dam olish kunlari hisoblangan.

S.Ayniy maktabda ishlash jarayonida juda ko'p yangiliklardan voqif bo'la boshladi. U Abdurahmon Saidiy orqali Turkiyada chiqadigan "Sirotul mustaqim" ("To'g'ri yo'l") nomli ijtimoiy-diniy, ilmiy-badiiy jurnalni olib o'qiy boshladi. Uning aytishicha, bu jurnalni o'qish uning tafakkur taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Abdulvohid Munzim tomonidan kattalar uchun ham kechki maktab tashkil etilib, yoshi yigirma, o'ttizga yetishgan kishilarni yig'ib, har kun ikki soatdan ta'lim bera boshlaydi.

XX asr boshlarida Buxoro sharoitida boshlang'ich maktabning to'rt sinfdan iborat bo'lishini S.Ayniy birinchilardan bo'lib talab qilib chiqadi. U ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining yetakchi rolini va markaziy figura ekanligini to'g'ri anglab yetadi. U darsni uyushtirish va o'tkazishda o'qituvchining mas'uliyati katta ekanligini ta'kidlaydi [2:8-14].

S.Ayniy ma'lumotlariga qaraganda, Abdulvohid Munzimning yangi usul maktabi shuhrat topgandan keyin (1908) Buxoro madrasalarida tahsil oluvchi ko'pgina yoshlar, ilmu-toliblar madrasa darslaridan qanoat hosil qilmay, maktab atrofida birlashib, o'qish va xizmat qilishga kela boshlagan. "Bulardan biri Po'latxo'ja o'g'li Usmonxo'ja edi"[3:33-35] deb qayd etadi, S.Ayniy. 1909 yili maktabda haqiqiy tartib intizom kiritish, usuli savtiya maktablari bilan yaqindan tanishmoq uchun "rafiqlarimizdan Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li va Hamidxoja Mehriylarni Bog'chasaroy va Istanbulga yubormoqni rejalashtirdik. Ular biron oy Bog'chasaroyda to'xtab, Ismoil Gasprinskiy bilan suhbat qilib, uning yangi usul maktabini ko'rib, bir necha hafta tajriba o'rganib va orttirib, keyin Istanbulga borib, ularning yangi maktablarini ko'rib, ta'lim-tarbiya, yangi maktablarga va boshqa fanlarga oid kitoblar sotib olib, u yerda uch oy to'xtab, ma'lumotlarini ziyoda qilib, Buxoroga qaytib, jadid maktablariga xizmat qilishlarini nazarga olgan edik".

1909 yilning may oyida Usmonxo'ja va Hamidxoja Mehriylar yo'lga chiqib, dastlab Samarqanddagi Abdulqodir Shakuriy maktabida bo'lib, uning imtihonida qatnashadilar. Shu vaqt oralig'ida S.Ayniy va Ahmadjon Hamdiy ham tajriba orttirish va jadid maktabining kelajagini yuksaltirish maqsadida 1909 yilning bahor fasli oxirlarida ikkinchi marta o'n kun davomida Samarqandda, Shakuriy maktabida bo'ladilar. 1908 - 1909 yillarda

Abdulvohid Munzim va S.Ayniyning maktabida o‘quvchilar soni ko‘payib, 30 nafarga yetadi. “Biz boshqa talaba qabul qilmadik. Aksariyat o‘qiydiganlar bahorning boshida maktabga kelgan edilar, yozda ta’til qilmasdan qaror qildikki, 5-6 oylik o‘rganganlarini xalqqa ko‘rsatib, manzur qilsak”[3:38].

Afsuski, Abdulvohid Munzim va S.Ayniy tomonidan ochilgan yangi usul maktabi eskicha o‘qitish tarafdori bo‘lgan mutaassib ruhoniylarning qattiq noroziligiga uchraydi. Ular yangi usul maktablari va tarafdorlariga qarshi har xil fitna ig‘volarni to‘qib chiqara boshlaydilar. Maktabni tezroq yopish maqsadida barcha choralar ko‘riladi. S.Ayniy “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” asarining “Maktabni yopmoqqa hozirlanish va imtihon” bobida “Maktabning shuhratini va xalqning rag‘batini ko‘rib, aksilharakat ko‘rina boshladi” [3:43-44] - deb yozgandi.

Hatto Buxoroda faoliyat ko‘rsatayotgan tatar maktablariga ham mutaassib ruhoniylar tomonidan tazyiq o‘tkaziladi. S.Ayniyning yozishicha, ularning maktabiga birinchi bo‘lib qarshi chiqqan zot asli qozonlik bo‘lgan madrasa mudarrisi tatar mulla Qamar bo‘lgan [3:45]. Mulla Qamar fitnachi, shuhratparast bir kishi bo‘lgan. Shuningdek, u Rossiyaning Buxoroda faoliyat ko‘rsatayotgan siyosiy agentligining sho‘basida ishlagan. Mulla Qamar qaysi mulla va ulamo ahlining uyida majlis yoki biron muhim tadbir bo‘lsa, o‘sha majlislarda faqat yangi usul maktabi va uning zararli ekanligi to‘g‘risida gapirgan.

XX asr boshlarida Buxoro jamiyati ikki guruhga: Domla Ikrom rahbarligidagi taraqqiyparvarlar va mulla Abdurazzoq boshchiligidagi qadimiylarga bo‘linib, har ikki oqim o‘rtasida shiddatli g‘oyaviy kurash ketgan. Maktabdorlar va maktab muallimlari umumiy imtihon majlisi o‘tkazib, xalqqa uning ijobiy tomonlari ko‘rsatishlari kerak edi. “Agar umumiy bir imtihon majlisi yasalsa, maktab yopilgan taqdirda ham, bir qism xalqqa yaxshigina ta’sir qoldirishi aniq edi” [3:45].

1909 yil oktyabr oyida o‘tkazilgan maktab imtihonida Buxoro qo‘shbegisi Ostonaqul, Qarshi hokimi Mirzo Nasrullo, rais Burhoniddin, qozikalon Baqoxo‘ja va madrasa mudarrislari ishtirok etishgan.

Shuningdek, Buxoroning mashhur muftiylaridan, yangi usul maktabi tarafdori bo‘lgan domla Ikrom, Samarqand ziyolilaridan Abdulqodir Shakuriy ham imtihon majlisida qatnashadi. “Bunga Buxoro shahar xalqining boshqa tabaqalari vakillari ham taklif qilingan bo‘lib, jami 100 kishi edi” [5:77] - deb ular soniga aniqlik kiritadi F.Xo‘jayev.

Oxir-oqibat 1909 yil qushbegi, qozikalon maktabni yopish uchun yozilgan fatvoga imzo chekib, muhr bosadi. Ostonaqul qo‘shbegi, qozikalon Baqoxo‘ja va rais Burhoniddin tarafidan ma’murlar kelib, maktabning yopilganligini rasman Mirzo Abdulvohidga aytadi. Shunday qilib, eskicha o‘qitish tarafdorlari bo‘lgan mullalarning ig‘vosi va fitnasi oqibatida buxoroliklarga ma’rifat nurini tarqata boshlagan Abdulvohid Munzim va S.Ayniyning maktabi ham yopiladi. Ushbu maktab yopilgan bo‘lsa-da xalqning ishonchini allaqachon qozongan, ilm-fan va ma’rifatga umid uyg‘otgan edi. S.Ayniy maktab yopilgandan keyingi ahvolni shunday izohlaydi: “Maktab muallimi: “Bundan keyin maktabning ochilishi ma’lum emas” deb, rasman qabul qilmaganligi holda, ulamoning fikriga ahamiyat bermasdan 50 ta o‘quvchi maktabga qayd etildi. Ushbu maktab hukumat tarafidan yopilgandan keyin, ulamoning takfir va tal’iniga qaramasdan, ellikdan ortiq buxorolik o‘quvchilar tatar maktabiga kirib ketdilar” [5:77].

E’tiborli tomoni shundaki, Buxoroda birinchi usuli jadid maktabining ta’qib ostiga olinishi va bir yil faoliyat ko‘rsatmay yopilishi, maktab muallimlarini quvg‘in qilinishi, Rossiya imperiyasida yashovchi musulmon ziyolilari tomonidan nashr etiladigan ko‘plab gazeta va jurnallarda aks sado bera boshladi. S.Ayniy shaxsan “Mulla Nasriddin” jurnaliga mushtariy bo‘lgan, uni muntazam mutolaa qilib, bu jurnal sahifalarida o‘zining hajviy she’rlari va maqolalari bilan turli yashirin belgi hamda taxalluslar ostida qatnashib turgan. S.Ayniyning “Buxorodin bir kishi” imzosi bilan “Mulla Nasriddin” jurnalining 1910 yil, 23 sonida bosilgan “Ko‘hna Buxorodin axborlar” [4] nomidagi maqolasi ushbu fikrimizning dalilidir. Uncha katta bo‘lmagan ushbu maqola hajviy xarakterda yozilgan bo‘lib, unda Buxoro madrasalaridagi o‘tiladigan va o‘qitiladigan eski diniy tahsillar, fanlarning quruq yodlashga asoslanganligi va samarasizligi tanqid ostiga olinadi.

Ma’rifatparvar adib S.Ayniyning Buxoro jadidchilik harakatida va jadid maktablarida olib borgan faoliyati murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyat taranglashgan yillarga to‘g‘ri kelgandi. Ayni bu paytda amirlikda yuzaga kelgan islohotchilik va jadidchilik harakatlari uning dunyoqarashida keskin o‘zgarishlar yasadi. Mutaassib ruhoniylar va amirlik hukumatining qattiq qarshilik ko‘rsatishi ham uning bu g‘oyalaridan qaytara olmadi.

S.Ayniyning mahalliy xalqni, yosh avlodni ilm-ma’rifatli qilib tarbiyalashdagi xizmatlari kattadir. Yoshligida ilm olishga bo‘lgan kuchli ishtiyoqi, uni Buxoro madrasalarida o‘qishini ta’minladi. Lekin bu vaqtda Buxoro madrasalarida o‘qitiladigan fanlardan qanoat qilmay, qanday bo‘lmasin uni isloh etish, diniy ilmlar bilan birga dunyoviy fanlarni o‘rgatadigan yangi usul maktablarini ochishga bel bog‘ladi. Madrasadagi eski dars ta’limi bilan xalq farzandlarini yetuk va Vatani uchun sodiq farzandlarni tarbiyalashga erishib bo‘lmasligini tushunib yetdi. U keyinchalik, Buxorodagi jadid maktablarini tashkil etishning dastlabki tashabbuskorlaridan biriga aylandi.

S.Ayniy shaxsning kamoloti va jamiyat taraqqiyotida ma’rifat rolini yuqori o‘ringa qo‘yadi. Xalqning iqtisodiy ahvolini aholi o‘rtasida

ma’rifat tarqatish yo‘li bilan yaxshilash mumkin deb hisoblaydi. Shuning uchun ham u “Fan xalqqa boylik keltiradi” [3:26], - deb yozgan edi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon va boshqalar bilan bir safda Sadriddin Ayniy ham xalqning dardu-hasratini, uning ayanchli va mudhish qismati, fojiali turmush tarzini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, qalbi va vujudidan o‘tkazib, aql-zakovatini, butun ongli hayotini shu xalq erki, ozodligi va taraqqiyotiga safarbar qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ayniy S. Qisqacha tarjimai holim / Asarlar. 8 jildlik. 1-jild. - Toshkent: O‘zdavnashr, 1963. - B. 37.
2. Ayny S. Tahsib us-sibyon. - Samarqand: 1917. - Sah. 8-14.
3. Ayniy S. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar. - B. 33.
4. Ayniy S. Ko‘hna Buxorodin axborlar // Mulla Nasriddin (Baku), 1910, № 23.
5. Xo‘jayev F. Buxoro inqilobining tarixiga materiallar. - Toshkent-Samarqand: O‘zdavnashr, 1926. - B. 77.